

Date: 27th July-2026

O'ZBEK RAQS SAN'ATINING XX ASRDAGI O'RGANILISH JARAYONLARI

Nazarova Eliza

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“Xoreografiya jamoalari rahbari” ta'lim

yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Matluba Murodova**

Ma'lumki o'zbek milliy raqs ijrochiligi kuy, qo'shiq, qarsak jo'rligida bo'ladi. Qo'shiq kuylarning paydo bo'lishi va ulardagi ma'no va mazmun, vazniy, ritmik harakatlar raqs san'atining yanada sermazmunlashuviga asos yaratdi.

Ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat shunday yozgan edi: “Go'zal san'atning eng burung'usi uchun (raqs)ning eng boshlang'ich, eng sodda shakli bo'lgan sakrab o'ynamoqlarni hayvonlar orasida ko'rmoq ham mumkindir. Insonlarda go'zallikni sevish tuyg'usi ko'tarila borgan sari “raqs”ning ham go'zallashib ko'tarilib bormog'i tabiiydir. Ma'lum bir ohang, tartib, intizom bilan sakrab o'ynag'onlarning tepinishlari musiqiyning boshlang'ich ildizlarini xozirlaydilar. Musiqiyning bu yo'sinda hozirlagan boshlang'ich ildizlari go'zallikni sevish tuyg'ular yolg'izligi bilan go'zallashib, ko'tarila borg'oni tabiiydir. Musiqiy qurollarni burung'i el-uluslarning diniy yig'inlarida, din boshliqlarining qo'llarida ko'rmoq musiqiyning din tuyg'ularidan chiqqanini ko'rsatadi. Balki ildizlarini (raqs)dan olib maydong'a chiqqan, go'zallikni sevish tuyg'ularimiz bilan ko'tarilgan musiqiyning din boshliqlari tomonidan din yig'inlarida, diniy marakalarda ishlatilganiga isbot bo'ladi” [1, 9-b.].¹

XX asrda raqs san'atida raqs maktablari vujudga keldi. Ular Buxoro raqs maktabi, Xorazm raqs maktabi va Farg'ona raqs maktabi deb nomlanib, o'ziga xos yo'nalishlarni shakllantirdi. Mazkur yo'nalishlarning har biri asrlar davomida tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan va rivojlangan raqs harakatlarini o'z ichiga oldi. O'zbek xalq raqslari o'zbek kasbiy raqsLARining barcha shakllarini o'zida mujassamlashtirgan va aksar hollarda ularni mahalliy harakatlar va shakllar bilan to'ldirib beradi.

Ming yillar davomida yig'ilgan raqs san'atining durdonalari XX asrning 30-yillaridan boshlab raqs san'ati namunalari sifatida o'rganila boshlandi. O'zbek raqsining asoschilari, raqs san'atining faxri bo'lib nom qozongan ustoz ijodkorlardan Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, Galya Izmailova va ularning izdoshlari, safdoshlari va shogirdlari Klara Yusupova, Qunduz Mirkarimova, Halima Komilova, Gulnora Mavayevalar o'zbek milliy raqs san'atining qayta ro'yobga chiqishida, jahonga tanilishida, shuhrat qozonishida va o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi sifatida saqlanib qolinishiga katta hissa qo'shganlar.

Ayni XX asrda o'zbek teatr san'atidagi o'zgarishlar raqs san'atining taraqqiyotiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi. Natijada qisqa vaqt ichida professional o'zbek milliy raqs

¹Фитрат. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи. Тошкент, 1996, 9-бет.



Date: 27th July-2026

san'ati paydo bo'ldi va o'zining maktabiga ega bo'ldi. O'zbek raqsining har bir maktabida o'ziga xos shakl ketma- ketligi, kuy va ohang, imo-ishoralar, harakat holatlarini farqlanishi sezilib turadi.

Raqs san'atining XX asrdagi rivojlanish jarayonlari nazariy jihatdan ham o'rganila bordi. Etnograf olim Irida Baxta o'zbek raqs san'ati ustalari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilovlar bilan uchrashib, o'zbek milliy raqs san'ti haqidagi manbalarni o'rgandi. O'zbek raqsining murakkab holatlari, elementlarini tushunish, tahlil qilish olimadan katta mehnat talab qilar edi. Shu sababli Irida Baxtaga o'z davrining ma'rifatli kishisi, shoir va dramaturg G'ulom Zafariy yaqindan yordam beradi. 1936-1941 yillar "Katta o'yin" nomli Farg'ona raqslar turkumidagi harakat va holatlarni so'z bilan tasvirlab, tahlil qildilar. Shu tariqa "O'zbek(Farg'ona)raqsining asosiy shakllari" bo'limi yaratildi. Irida Baxta Buxoro va Samarqandda bo'lib, u yerlarda ham tadqiqot ishlarini olib boradilar.

XX asrning o'rtalarida L. Avdeyeva, M. Qodirov kabi olimlar o'zbek raqs san'ati tarixini o'rganish va tahlil qilishga oid tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular raqs san'ati harakatlarini aniqlash hamda o'sha harakatlarning har birini so'z bilan ifodalashga harakat qildilar. San'atshunos olim Muhsin Qodirov 1958-1965-yillarda respublikamizdagi barcha viloyat va tumanlarda dala ekspeditsiyasini uyushtirib, an'anaviy teatr san'atiga oid manbalarni to'plash bilan birga raqs san'atiga oid manbalarni ham aniqlaganlar. XX asrning 60- yillarda o'zbek raqsshunosligining rivojiga O'zbekiston xalq artisti Roziya Karimova o'zining ham san'ati, ham ilmiy tahlili bilan katta hissa qo'shdilar. R. Karimova dastlab o'zbek xalq raqs harakatlarini aniqlash, tartibga solish va yozib olish bilan astoydil shug'ullandilar. Dastlab, Roziya Karimova Lyubov Avdeyeva rahbarligida jahonda mavjud raqslarni yozib olish uslublarini o'rgandilar. Bu uslublar o'zbek xalq raqsi, xalq sahnaviy raqsiga aynan to'g'ri kelmasligi, o'zbek raqsidagi boy va murakkab harakatlar, holatlar hamda jilvalarni, kompozitsion tuzilmalarni ifoda qilishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelinganligi sababli ular yozish sistemasida o'ziga xoslikni kashf etdilar.

Lyubov Avdeyeva "O'zbekiston raqs san'ati" nomli risolasida "Katta o'yin" raqsi haqida so'z yuritib shunday ta'rif beradi: "Ajoyib o'zbek raqslari ichida bir raqs bor-ki, u haqida poema va povestlar, she'rlar va hikoyalar, katta katta asrlar yozsa bo'ladi"[2, 18-b.]. Roziya Karimovanning o'zbek raqsi maktablari qoidalarini bayon qiluvchi "O'zbek raqslari" nomli kitobi dastlab rus tilida bo'lib, mustaqillik sharofati bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Ular o'zbek raqs harakatlarini va shakllarini yozib olishning eng ma'qul, eng qulay yo'li harakatlarni musiqa taktlariga bo'lgan holda so'z bilan ifoda qilish va rassom chizmalari, fotosuratlar bilan tasavvurni mustahkamlash zarurligini aniqladilar.

Ular tomonidan to'plangan manbalar XX asr o'zbek raqs san'atining rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot beradi deb aytish mumkin.

XX asr raqslari haqida berilgan ma'lumotlar orqali har bir raqs alohida talqin qilinganligini ko'rish mumkin. Respublikamizning tarixiy taraqqiyoti, tabiati, turmush



Date: 27th July-2026

tarzining o'ziga xosligi o'zbek raqslarida turli tuman uslublarni yaratilishiga sabab bo'ldi. Farg'ona, Buxoro, Xorazm raqs uslublari bir biridan ajralib turishi aniqlandi. Farg'ona maktabi raqslari o'zining dadil harakatlari bilan, Buxoro raqslari gavdani tik tutib yurishlar, qo'llarining go'zal harakatlari, ayollar raqqoslarning tizzalab o'tirib olib o'ynaydigan raqslari keng tarqalgan.

Ayrim raqslarda raqqosa tomonidan kuylanayotgan ashulaning mazmuniga mos shaklda harakat qilinayotganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi.

Ayrim raqslarda turli tuman jonivorlarning xatti harakatlari, qiliqlari, yurishi tasvirlangan bo'lsa, ayrim raqslarda esa hunarmandlar mehnatini tasvirlash katta o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, 1996, 9-bet.
2. Авдеева Л. Танцевальное искусство Узбекистана. Т., "Адабиёт ва сан'ат", 1960.
3. Avdeyeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan Т., "O'zbekraqs". 2001
4. O'zbek milliy raqsi tarixidan. – Toshkent: "O'zbek raqs birlashmasi", 2001, 284 b.
5. Merosiy raqs durdonalari - Toshkent:CHO'lpon. - 2003, 102 b.
6. Karimova R. O'zbek raqslari. –Toshkent: Cho'lpon, 2003.
7. Mukaramma Turg'unboyeva ijodi va uning o'zbek sahna xoreografiyasi rivoji uchun qo'shgan hissasi. Ilmiy amaliy anjuman materiallari. –Toshkent: "Mumtoz soz" nashriyoti, 2014 y.
8. O'zbek xoreografiya san'atida vorislik masalasi. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. –Toshkent: "Mumtoz so'z", 2015 y.

